



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
3-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 3-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
профессор **Д.Х.Асланова**

Масъул котиб:
профессор **М.Қ.Пардаев**

Муҳаррирлар:
Ф.А.Сафаров
Ш.З.Ўрозов

Техник муҳаррир:
А.Н.Холиқулов

Корректор:
С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
Ҳ.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида
тарқатилади.

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-
тика қўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

О.М.Мургазаев – ТДИУ Самарқанд филиали директори,
иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Р.Болтабаев – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ кафедра мудири, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ декани, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ доценти, и.ф.д.

Шермухаммад Бекмурод ўғли Омонов Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шерикчилигининг ривожланиш хусусиятлари ва тамойиллари	79
Mohira Asqarboy qizi Umurova Хизмат ko'rsatish tarmoqlarining iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda rivojlantirish istiqbollari	83
Ислом Исмоилович Эргашев Хизмат кўрсатиш корхоналари инвестицион жозибадорлигини баҳолашнинг хусусиятлари	86
Jahongir Aktamovich Haydarov Transport xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish	91
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Илёс Султанович Абдуллаев, Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов Минтақа туризмида соҳа корхоналарининг бошқариш сегментининг нисбий талаб-таклиф модели	97
Dilmurod Abdullayevich Nasimov, Mohinur Ravshanbekovna Maxmudova Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	102
Ruxshona Shavkatovna Rofeyeva Samarqand shahri turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yashil zonalar va bog'larning o'rni	105
Shohista Bobobekovna Toyirova Ekoturizm-global ekologik inqirozga qarshi innovatsion yechim	109
Дилшод Мураткулович Абдураимов Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятнинг ривожланиш хусусиятлари	113
Умиджон Рахимович Матякубов, Расулбек Кочкарбай ўғли Исаков Хива ва Боғот туманларида туризмни ривожлантириш имкониятларидан самарали фойдаланиш йўллари	118
Дониёр Журакулович Абдуразаков Қишлоқ туристик ресурсларини таснифлаш ва бошқаришнинг амалий масалалари таҳлили	122
Dilrabo Shirinboyevna Mardonova Mamlakatimizda mehmonxona biznesining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va prognozlash	126
Амриддин Ҳамдам ўғли Ҳамдамов Туризм соҳасида юқори сифатли хизмат кўрсатиш учун рақамли технологиялардан фойдаланишни баҳолашнинг услубий асослари	131
Зебинисо Бахтиёровна Навруз-зода “КРП” воситасида муқаддас жойларнинг зиёрат кластербоплик даражасини баҳолаш	135
Сирожиддин Шерали ўғли Халилов Миллий туризм тармоғида рақобат муҳити ва унинг таркибий элементлари	140
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Гулнора Мардиевна Шадиева, Шухрат Облокулович Кувандиқов Миллий иқтисодиётда оилавий тадбиркорликнинг ўзига хос функциялари	145
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Raxmatillo Mirolimovich Egamov, Sherzod Norboyevich Jumanov, Alisher Zokirovich Saydirasulov Innovatsion tadbirlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazish usullari	149

– ДХШ тузилмаларига хизматлар кўрсатиш ишончилигини ошириш мақсадида янги чақирик ва таҳдидларга қарши туриш қобилиятини мустаҳкамлаш.

Биз, давлат-хусусий шериклик механизми ҳамда унинг ривожланиш тамойилларининг кўплаб таснифларини тадқиқ этиш жараёнида иқтисодиётнинг давлат ва хусусий секторлари ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг қуйидаги асосий тамойилларини белгилаб олдик.

Ҳамкорликнинг бошқа тамойиллари ҳам давлат-хусусий шерикликда тартибга солувчи сифатида таъсир кўрсатади. Шунинг таъкидлаш керакки, ушбу тамойиллар гарчи улар у ёки бу институционал шаклларни модернизация қилинган иқтисодиётнинг доимий ўзгарувчан шароитларига мослаштириш жараёнида доимий равишда таҳрир қилинса-да, ҳар доим тегишли шартномаларда (шартномаларда) мустаҳкамланади.

Хулоса ва таклифлар. Давлат учун ДХШнинг устун жиҳатлари хусусий секторнинг ишпироки ҳисобига лойиҳалар самарадорлигини ошириш, давлат томонидан хусусий маблағлар ҳисобига муайян соҳа ёки тармоқни ривожлантириш бўйича муҳим масалаларни ҳал қилиш имкониятлари, бюджет харажатларини камайтириш, хусусий молиявий маблағларни кенг қўламда жалб қилиш, тежалган бюджет маблағлари ҳисобига ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий барқарорлигини мустаҳкамлаш ва рақобат даражасини ошириш каби омиллар асосида аниқланади.

Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шериклик механизми ҳамда унинг ривожланиш тамойилларининг кўплаб таснифларини тадқиқ этиш жараёнида иқтисодиётнинг давлат ва хусусий секторлари ўртасидаги ўзаро муносабатлар тўловлилик, танлов ўтказиш, муддатлилик, қайтаришлик, тенглик, мақсадга йўналтирилганлик тамойилларига асосланиши керак.

<p>Ш.Омонов</p> <p>Особенности и принципы развития государственно-частного партнерства в сфере услуг</p> <p>Аннотация: В статье рассматривается формирование механизма государственно-частного партнерства, преимущества и особенности реализации механизма государственно-частного партнерства, принципы и факторы его развития, основные направления экономической деятельности между государством и субъектами частного предпринимательства.</p> <p>Ключевые слова: сфера услуг, государственно-частное партнерство, кластер, частный бизнес, кластерная политика, проект, потребители.</p>	<p>Sh.Amonov</p> <p>Features and principles of development of public-private partnerships in the service sector</p> <p>Abstract: The article discusses the formation of the mechanism of public-private partnership, the advantages and features of the implementation of the mechanism of public-private partnership, the principles and factors of its development, the main directions of economic activity between the state and private business entities.</p> <p>Keywords: services, public-private partnership, cluster, private business, cluster policy, project, consumers.</p>
--	---

Mohira Asqarboy qizi Umurova – SamISI tayanch doktoranti

XIZMAT KO‘RSATISH TARMOQLARINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI HAMDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

<p>Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining sifat samaradorligini oshirish, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini innovatsion takomillashtirishda strategiyalarni to‘g‘ri tanlash hamda samaradorligini oshirish uchun bir qancha taklif va tamoyillar keltirilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasining samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlashtirilib, iqtisodiyotda tutgan o‘rni o‘rganilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: Samaradorlik, xizmat ko‘rsatish turlari, innovatsion takomillashtirish, korxonalar, servis iqtisodiyoti, servis sifati, iste‘molchilar.</p>
--

Kirish. Bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish, mazkur sohada samaradorlikni oshirish orqali uning mamlakat iqtisodiyotidagi

ulushini ko‘paytirish iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ushbu sohani rivojlantirmasdan, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, ishsizlik darajasini kamaytirish, aholi daromadini oshirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilib bo‘lmaydi.

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi insonlar hayotini yaxshilashga qaratilganligi sababli uning tarmoqlari va ko‘lami juda keng. Ushbu soha mamlakat yalpi ichki mahsulotida ham o‘zining sezilarli o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Ushbu sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi ortib, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy tarmoqlarni kengaytirish asosiy masalalardan biriga aylandi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 11-mayda “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Unda mazkur sohani rivojlantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bozor munosabatlari sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi hamda uning samaradorligini oshirish muammolari bilan ko‘plab olimlar shug‘ullanmoqda. Bular jumlasiga Y.A. Abdullayev, F. Karimov, U. Umarov, A.O‘lmasov, Sh.Shodmonov, T.Jo‘rayev, R. M. G‘aybullayev rahbarligidagi bir guruh mualliflar jamoasi, M. Q. Pardayev rahbarligidagi bir guruh olimlarni kiritish mumkin. Mazkur olimlarning tadqiqotlari xizmat ko‘rsatish sohasini shakllantirish, uni rivojlantirish, diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotda tutgan o‘rnini yuksaltirishga qaratilgan. XVII-XIX asrlarda F. Kene (1694-1774), A. Smit(1723-1790), A. Marshall (1842-1924) kabi olimlar xizmatlar tushunchasining mohiyatini ochish hamda ularning tovar shaklidagi ne‘matlardan tubdan farq qilishini asoslash maqsadida inson iste‘mol qiladigan barcha ne‘matlarni ikki turga bo‘lganlar. Ular barcha xizmatlarni nomoddiy ne‘matlar sifatida qarab, fan tarixida ilk bor “xizmat” tushunchasining shakllanishiga asos solganlar. 1930-1940-yillarda K. Klark, J. Furast’e, U. Rostou, D.Bell kabi iqtisodchilarning tadqiqot ishlarida xizmatlar to‘g‘risidagi tasavvur va ilmiy qarashlar boyitilib, iqtisodiy rivojlanishda xizmatlar sohasining roli tobora oshib borayotganligi to‘g‘risida asoslangan fikrlar berilgan.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar keng tarqalgan quyidagi turda talqin qilinmoqda. “Maqsadli ongli mehnat bo‘lib unda ishlab chiqarishning samarasi uning iste‘moli bilan mos tushadi”.¹

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida tanqidiy yondashuv, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, guruhlash, kuzatish hamda statistik usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Dunyo bozori tizimida xizmatlar bozorining mavjudligi, mamlakatimizda ushbu soha mavqeyi, uning aholi turmush darajasi yaxshilanishidagi o‘rni oshib bormoqda. Xizmatlar sohasining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi omillardan biri uning mamlakat YaIMdagi ulushidir. Xizmatlar sohasining 2022- yilda mamlakat YaIMdagi ulushi 40.3% ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotiga qaraganda o‘tgan yilda 39% ni tashkil qilgan. Bir yil davomida 1.3% ga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkich keskin oshganligi hamda ushbu sohani yanada rivojlantirish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri ekanligidan dalolat beradi. Bu esa xizmat ko‘rsatish sohasini ham nazariy, ham amaliy jihatdan atroflicha o‘rganishni taqozo etadi (1-jadval).

1-jadval

2021-2022- yillarda xizmat ko‘rsatish sohasining YaIMdagi ulushi.²

Davlat	YaIMdagi % ulushi	Germaniya	69%
AQSh	81%	O‘zbekiston	40.3%
Yaponiya	76%		

¹ Теплицкий В., Костюковский Ю. Как оценить инвестиционную привлекательность предприятия, деловая жизнь 1993.№ 9. – С. 11-18

² <https://kun.uz>. 02.06.2023.

<https://cyberleninka.ru>.25.05.2023

Quyida keltirilgan jadvalda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning xizmatlar sohasi ham yuqori darajadagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xizmatlar sohasi rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar YaIM tarkibida yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Bundan ko'rinib turibdiki iqtisodiyotni rivojlantirishda xizmatlar sohasini takomillashtirish, investitsiyalar jalb etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash oldimizda turgan muhim vazifalardan biri hisobdanadi.

Dunyoda xizmatning minglab turlari mavjud bo'lib, ularni batafsil o'rganish uchun ma'lum darajada tartibga solish va tasniflash taqozo etiladi. Jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) xizmatlarning 160 turini tan oladi va ularni 12 guruhga bo'ladi.¹

2-jadval

Xizmat turlari

Ishchanlik xizmatlari	46 turda
Aloqa xizmatlari	25 turda
Injining va qurilish xizmatlari	5 turda
Distribyutorlik xizmatlari	5 turda
Umumta'lim xizmatlari	5 turda
Atrof- muxitni muhofaza qilish xizmatlari	4 turda
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	4 turda
Turizm va sayyohlik xizmatlari	4 turda
Dam olish va madaniy sport bilan bog'liq xizmatlar	5 turda
Transport xizmatlari	33 turda
Moliyaviy xizmatlar(shu jumladan , sug'urta xizmatlari)	17turda
Boshqa xizmatlar (masalan maishiy)	7 turda

Xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi, yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga erishishi, ularni maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishda asosiy qoidalarga rioya etishi lozimligini ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar rivojlanishining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat.

1. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish jarayonida amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsadlar hamda qo'yilgan vazifalarning umumiy va alohida xususiyatlarini e'tiborga olgan holda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini aniqlaydi.
2. Xizmatlarni realizatsiya qiluvchi va xaridorning yakuniy natijalariga muvofiqligi tamoyili. Xizmatlarni realizatsiya qiluvchi va xaridor ishining yakuniy natijasini (xizmat ko'rsatishning pirovard natijasi) bir-biridan farqlash kerak. Murakkablik shundan iboratki, xizmatlarni realizatsiya qiluvchi va xaridorlarning maqsadlari, ehtiyojlari ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi yoki aniq belgilanmagan bo'ladi
3. Xizmatlar bozorida talab va taklif muvofiqligini ta'minlash tamoyili. Xizmatlar bozorida talabning barqarorligi sharoitida xizmatlarni saqlash muhim hisoblanadi. Biroq talabni o'zgarib borishi natijasida korxonaning xizmat ko'rsatishi va faoliyatining rentabelligi bilan bog'liq qiyinchiliklar va muammolar yuzaga keladi.
4. Xizmatlar bozorini rivojlantirishning transversallik tamoyili. Ushbu tamoyil xizmat ko'rsatish sohasida infratuzilmaviy va institutsional cheklavlarni bartaraf etish, hududiy iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish hamda realizatsiya, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda an'analar va innovatsiyalarning integratsiyasini ta'minlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Ushbu tamoyillar iqtisodiy qonunlarning amal qilishiga muvofiq namoyon bo'ladi va sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Xizmat ko'rsatish korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish, korxonalar menejerlari oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

¹ Арупов А.А., Казахстан в системе мировых торговых рынков. Алматы: Университет "Туран" 2000. С.63

Shunga ko‘ra, mehnat unumdorligini oshirish – bu ham davlat darajasida, ham korxonalar darajasida belgilanadigan muhim maqsaddir. Ta’kidlash mumkinki, mehnat unumdorligini oshirmasdan samaradorlikni oshirish bu qoniqarsiz natijalarga erishishning ancha oson yo‘llarini topishning o‘zginasidir. Xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat unumdorligini oshirish vazifasi nafaqat uning oshishi, balki ko‘p jihatdan rahbariyatning harakatlari natijasi bo‘lib hisoblanadigan baholash bilan ham bog‘liq bo‘ladigan o‘ziga xos murakkabliklarni namoyon qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasiga innovatsion texnologiyalarni ko‘proq jalb qilish, investitsiyalar kiritish, xizmatlar sohasini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash va bu sohada faoliyat yuritayotgan kadrlar salohiyatini yuksaltirish oldimizga qo‘yilgan muhim vazifalardan bo‘lmog‘i lozim. Xizmatlar sohasini rivojlantirishda hudud va mintaqalarga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bundan tashqari e‘tibordan chetda qolib ketayotgan xizmat turlarini aniqlash, xizmat ko‘rsatish va servis sohasida soliq imtiyozlarini yaratish ham mazkur soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib xizmat ko‘rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish jarayonlarini intensivlashtirish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon xizmatlarni ishlab chiqarishda innovatsion boshqarish usullari va texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Mazkur jarayon nafaqat xizmat ko‘rsatishning innovatsion omillaridan foydalanishni, balki ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini ham oshirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammedov M.M. Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya, Samarqand, 2007.
2. Pardayev M.Q., Ochilov I.S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. T. Iqtisod-moliya. 2011.- 172b.
4. Abulqosimov X. va boshqalar. Erkin iqtisodiyot tamoyillari. – T.: Akademiya, 2005.-52 b.
5. Котлер. Ф. Основы маркетинга. Москва: Прогресс, 1993
6. Волгин А.П. Управление персоналом. Теория и практика. Москва. Проспект, 2011- 688с.

М.Умурова	М.Умурова
Роль сферы услуг в экономике и перспективы ее развития	The role of the service sector in the economy and prospects for its development
Аннотация: В данной статье представлены предложения и принципы повышения эффективности предприятий сферы услуг, выбор правильной стратегии инновационного совершенствования предприятий сферы услуг в условиях развивающейся рыночной экономики, повышение их эффективности. Определены показатели эффективности сферы услуг и изучена их роль в экономике.	Abstract: This article presents proposals and principles for increasing the efficiency of service sector enterprises, choosing the right strategy for innovative improvement of service sector enterprises in a developing market economy, and increasing their efficiency. The efficiency indicators of the service sector are determined and their role in the economy is studied.
Ключевые слова: виды услуг, эффективность, инновационное усовершенствование, предприятие, сервисная экономика, качество обслуживания, потребители.	Keywords: types of services, efficiency, innovative improvement, enterprise, service economy, service quality, consumers.

Ислом Исмоилович Эргашев – СамИСИ докторанти, PhD

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация: мазкур мақола хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналари инвестицион жозибадорлигининг баҳолашнинг ўзига хос хусусиятларини ва айрим жиҳатларини тадқиқ этишга бағишланган. Унда инвестиция, инвестицион жозибадорлик тушунчалари хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналари нуқтаи назаридан қараб чиқилган. Инвестицион бошқарув қарорини амалга оширишнинг умумий жараёни тузилмаси тақлиф этилган. Хизмат кўрсатиш соҳасида корхоналари инвестицион жозибадорлигини баҳолашнинг асосий ёндашувлари таҳлили амалга оширилган.

Калит сўзлар: хизмат кўрсатиш корхонаси, инвестиция, инвестицион жозибадорлик, инвестицион бошқарув қарори.

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

07.09.2023 йилда теришга берилди. 22.09.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,6. Адади 100 нусха. Буюртма № 0074А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023